HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

# NAVOIY TASVIRINING XALQ OG‘ZAKI IJODIDA KELTIRILISHI

**Raximjonova Ra’no Muhammadulla qizi**
Andijon davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.23833974

**Annotatsiya:** Maqola xalq og‘zaki ijodidagi Navoiy tasviriga bag‘ishlangan. Unda yosh kitobxon xalq og‘zaki ijodidagi ayrim janrlarda berilgan Navoiy obrazi bilan tanishadi. O‘quvchi ertak janridagi Navoiy siymosi bilan tanishganda ezgulik tushunchalarini anglab yetadi. Obraz vatanparvarlikka, mehnatsevarlikka, oqil, dono bo‘lishlikka, doimo adolat bilan ish tutishlikka undaydi. Bunday ezgu tushunchalar o‘quvchilar ongini yuksaltiradi. Maktabgacha ta’lim muassasasidagi bolalar bunday asarlarni o‘qiganda ularning estetik, ma’naviy- axloqiy fazilatlari yuksalib boradi.
**Kalit so‘zlar;** Bolalar, bolalar adabiyoti, tarbiya, Navoiy, obraz, yosh avlod, kitobxon, ajdodlar, xalq og‘zaki ijodi, xalq.

**Аннотация:** Статья посвящена образу Алишера Навои в устном народном творчестве. В ней юные читатели знакомятся с образом Навои, представленным в отдельных жанрах устного народного творчества. Знакомство с образом Навои в сказках способствует осмыслению детьми таких нравственных понятий, как добро и справедливость. Этот образ побуждает подрастающее поколение к патриотизму, трудолюбию, мудрости, благоразумию и стремлению всегда поступать справедливо. Подобные нравственные ценности способствуют духовному и интеллектуальному развитию учащихся. Ознакомление детей дошкольного возраста с такими произведениями способствует формированию и развитию их эстетических, духовных и нравственных качеств.
**Ключевые слова;** дети, детская литература, воспитание, Навои, образ, молодое поколение, читатель, предки, устное народное творчество, народ.

**Abstract:** This article is devoted to the portrayal of Alisher Navoi in oral folk literature. It introduces young readers to the image of Navoi as represented in various genres of folklore. Through their acquaintance with Navoi's character in folk tales, children develop an understanding of such moral concepts as kindness and justice. This literary image encourages the younger generation to cultivate patriotism, diligence, wisdom, prudence, and a commitment to acting fairly in all circumstances. Such moral values contribute to the spiritual and intellectual development of young learners. Exposure to these literary works also promotes the development of aesthetic appreciation, spiritual awareness, and moral qualities among preschool children.
**Keywords;** children, children's literature, education, Navoi, literary image, younger generation, reader, ancestors, oral folk literature, folklore.

## KIRISH

Bolalar adabiyoti tarbiya vositasidir. Bolalar adabiyoti yoshlarni imon e’tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda qudratli quroldir. Kichkintoylar uchun yoziladigan har

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

qanday asar, ularning yoshiga, saviyasiga mos, bolalar qalbida turli fikrlar uyg‘otadigan, obrazlar rang –barangligi, buyuk ishlarni bajarishga ilhomlantira oladigan bo‘lishi lozim. Ularni dunyoqarashini o‘stiradigan asar bo‘lishi kerak. Eng muhimi har bir yaratilgan asar mavzusi sodda va tushunarli bo‘lishi kerak. Bunda asosiy rolni badiiy asar tili egallaydi. Asar tilining vazifasi asarning g‘oyaviy mazmunini ochib bera olishidir. Badiiy asar yaxshi, aniq, obrazli va yuqoridagi talablarga javob bera olgandagina, o‘quvchiga yozuvchining maqsadini, fikrini tez va oson yetkazib bera oladi. Masalan, A.Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida tilni “ko‘ngil xazinasining qulfi” va so‘zni esa shu “xazinaning kaliti”, deb ta’riflaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Navoiy insonlarni qisqa va mazmunli, chuqur o‘ylab mantiq bilan so‘zlashga chaqiradi. Bunday talabni biz hozirgi bolalar yozuvchilariga ham taaluqli desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bolalar yozuvchisi xalq tilini mukammal bilgandagina sodda, qiziqarli va mazmunga boy asar yarata oladi.

Ravon, aniq, tushunarli til bilan yozilgan asar, yosh kitobxonlar nutqiga ham katta ta’sir qiladi. Ularni to‘g‘ri nutqda so‘zlashga undaydi. Talablarga javob bera oladigan eng yaxshi mukammal asar yoshlarni hayotga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi, ona diyorimizga, mehnatga muhabbat, elimizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, o‘tmish - ajdodlar, tarix, ilm-fan yutuqlari bilan tanishtiradi. Farzandlarimizni munosib farzand bo‘lishiga eng katta ko‘makni beradi. Bekorga prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Bolaga kitob bering” - deb aytmadilar. Buning tag zamirida juda katta ma’no bor. Bir uyni qurish uchun, uning pundamentini mustahkam qilish kerak. Sh.M.Mirziyoyev shu qabilida ish tutmoqda, ya’ni kicvhkintoylar, yosh avlodga e’tiborni kuchaytirdilar. Prezidentimiz “biz uchun bolalarimizning ma’naviyati, bilimi, sog‘lig‘i eng muhim masala” - deb aytib o‘tdilar [1].

Davlatimiz rahbari turli joylarga tashrifi munosabati bilan juda ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda. Kelajak avlod tarbiyasining muhim bo‘g‘ini sifatida maktabgacha ta’lim tizimini yuksaltirish, bog‘chalarning moddiy- texnik bazasini mustahkamlash, ularni kuchli, mohir pedagoglar bilan ta’minlash, ularni maktabga sifatli tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda. Joylardagi ta’mirtalab bog‘chalarni yangidan ta’mirlatdi. Yangi bog‘chalar qurdi. Bularni esa barchasini yosh avlod, kelajak uchun qildi. Bolalar ko‘zidagi quvonch, ularni minnatdorlik belgisidir.

**MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Bolalarga o‘tmish ajdodlar haqida ma’lumot berish uchun, avvalo biz xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilamiz. Yozma adabiyotlar vujudga kelgunga qadar xalq kitoblari orqali yosh avlodga ta’lim- tarbiya berib kelingan. Shu jumladan Navoiy siymosini xalq og‘zaki ijodida ham uchratamiz. Xalq orasida Navoiy timsoli shoir, vazir sifatida tanilgan. Keyinchalik xalq og‘zaki ijodiga kirib kelgan Navoiy siymosini biz ertaklar, hikoyalar va qissalar orqali bilib olamiz. U haqida juda ko‘plab asarlar yaratilgan. Folklor asarlari uning biz bilmagan qirralarini ochishga xizmat qiladi, ayrim xususiyatlarni yoritib beradi. Endi xalq og‘zaki ijodidagi maqol janriga to‘xtalsak.

Maqol o‘zi arabcha “naql” so‘zidan olingan bo‘lib, “odob” degan ma’noni anglatadi. Maqol janrini biz Navoiy tanbehlariga mos keladi deya olamizmi? Xalq maqollari A.Navoiy uchun ma’no, ifoda maktabi bo‘lgan. Maqollardagi ixchamlik, soddalik, ularning zamiridagi mazmun ko‘lami, shoirni ilhomlantirgan va buning natijasini shoirning “Mahbub ul-qulub” asarida ko‘rishimiz mumkin. Asardagi har bir o‘git, tanbeh bevosita shoirning hayot tajribalaridan kelib chiqqan xalqona ruhdagi qarashlardir. Navoiy tanbehlari va xalq maqollarini bir-biriga solishtirgan, o‘xshatgan Yo‘ldosh Rahmatovning “O‘zbek xalq maqollari va Alisher Navoiy tanbehlari” mavzusidagi maqolasida shunday deyilgan:

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Alisher Navoiy ijodida pand, nasihat, o‘git, hikmat, tanbeh so‘zlari ko‘p uchraydi. Lekin shoir “Mahbub ul-qulub”da tanbeh kalimasiga alohida e’tibor qaratadi va uni tuzilishi, g‘oyaviy-badiiy mazmun-mohiyati bilan pand, hikmat, nasihat,ishoratga yaqin ma’nolarda qo‘llaydi. Adabiy so‘z bo‘lgan tanbeh aslida “nojo‘ya xatti-harakat uchun berilgan ta’zir, koyish, ogohlantirish yoki jazo” mazmunini ifodalaydi”. Bir tomondan olib qaraganda, Navoiy tanbehlari hayot yo‘lining natijalari desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ular shoirning hayotiy kuzatishlari natijasida yuzaga kelgan hikmatlardir. Navoiy har bir tanbehida Qur’oni Karim oyatlari, hadislar, buyuk shaxslarning fikri va xalq maqollaridan qo‘llab, ularni singdirib yuboradi. Buning natijasida Navoiy tanbehlari mazmuni va badiiyati boyib, inkor etilmas holga keladi. Shoirning ayrim fikrlarini biz “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit-turk”, (“Hikmat”)larda ham uchratishimiz mumkin. Bu asarlarning mualliflari Navoiydan oldin pand-nasihat ruhida asarlar yaratgan. Ularda turli xil maqollar, hikmatli so‘zlarni qo‘llaganlar. Masalan, “Tilga ixtiyorsiz, elga e’tiborsiz”, “Til yomoni boshga sirtmoq solar”, “Til uzuni bosh yeydi” kabilar. Til to‘g‘risidagi maqol, tanbehlarni “Qutadg‘u bilig”da uchratamiz. Ularda til odobi, tilni tiyish foydasiga doir mavzularni kuzatamiz. Yana bir maqolni ko‘rib o‘tsak. “Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q”. bir qator olimlar bu fikrni shoir aforizmining xalq maqoliga ko‘chishi deb ta’kidlaganlar. Chunki vafo, hayo, odob, ahloq to‘g‘risidagi fikrlar Navoiygacha bo‘lgan davrlarda ham bayon qilingan. Lekin Navoiydek mantiq aniq, tabiiy ohang, qat’iy hukmga erishilmagan. Navoiy vafo va hayoni imonga daxldorligini urg‘ulagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qiyosiy, tarixiy, chog‘ishtirma….

**Tahlil va natijalar.** O‘zbek xalq ertaklari.

**Navoiy bilan cho‘pon**

Navoiyning yoshligida otasi o‘lib ketgan ekan. Otasi o‘lgandan so‘ng o‘z shahrida tura olmay, Samarqandga borib madrasada o‘qibdi. Ko‘p qiyinchiliklar bilan o‘qishni tamomlab yana o‘z shahriga qaytibdi. Ot-ulovsiz piyoda yurib, bir necha kun deganda bir toqqa kelibdi. Bu joyda bir mo‘ysafid cho‘pon bilan uchrashibdi. Navoiy cho‘ponni darrov tanibdi. Cho‘pon o‘zini ko‘tarib katta qilgan otasining qo‘yboqari ekan. Chol ham Navoiyni tanib, “Tushimmi o‘nggimmi?” deb ko‘rishibdi. Darrov belbog‘idan ikkita non chiqarib, Navoiyni sut bilan mehmon qilibdi. Navoiy cho‘pondan:

Bu qo‘ylar kimniki? - deb so‘rabdi. Chol:

Bolam bu qo‘ylarning hammasi sizniki, siz u yoqdaligingizda otangizdan qolgan molar har kimning qo‘lida qolib edi. Otangiz hayot vaqtida 200 qo‘yni sizga atab menga topshirgan edi. Bu qo‘ylar bolalab hozir 700 dan oshdi. Otangizning vasiyatini o‘z o‘rniga qo‘yganim uchun xursandman, bu qo‘ylarni endi sizga topshiraman – debdi.

Navoiy bir kecha cho‘pon uyida mehmon bo‘libdi. Ertasi qo‘ylardan 200 ini ajratib cholga beribdi.

Ota siz ham bola chaqali odamsiz, mana bu qo‘ylarni xizmat haqingiz uchun oling.

Cho‘pon Navoiydan xursand bo‘libdi. Shundan so‘ng Navoiy 500 qo‘yni haydab bozorga olib ketibdi. Bu qo‘ylar juda semiz bo‘lgani uchun atrofini xaridorlar o‘rab olibdi. Odamlar Navoiydan

Qo‘yingiz necha pul? - deb so‘raganlarida, Navoiy

Men qo‘yimni nasiyaga sotaman. Shu shart bilanki, pulini podshoh o‘lgan kuni berasizlar. Shu shartimga ko‘ngan kishi bittadan yetaklab olib ketaversinlar –debdi.

Bozordagi odamlar darrov talashib, qo‘ylarni bittadan yetaklab olib ketibdilar. Shu kuni podshohning amaldorlari podshohga bu xabarni yetkazibdilar.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Ey, podshohi olam, nima deysiz, bugun bozorga bir qalandarsifat yigit kelib, 500 qo‘yni xalqqa nasiyaga tarqatib yubordi. Pulini podshoh o‘lgan kuni berasizlar deb sizga o‘lim tiladi,- debdilar. Shunda podshoh g‘azablanib:

Boringlar o‘sha qalandarni mening huzurimga hozir qilinglar,-deb buyuribdi.

Amaldorlar bozorga borib Navoiyning qo‘lini orqasiga bog‘lab, podshohning qoshiga olib kelibdilar. Podshoh qarasa, yoshligida birga o‘qigan do‘sti Navoiy ekan. Podshoh Navoiyga:

Nima uchun shuncha qo‘yni xalqqa berib yubordingiz, mening o‘limimga shunaqa rozimisiz? - debdi. Shunda Navoiy:

Ey, podshohim men chakki ish qilganim yo‘q. sizning podshoh bo‘lganingizni eshitib, qo‘ylarni talatib yubordim. Shunday ham berib yuborishim mumkin edi. Biroq ba’zi bir odamlar tekin moldan hazar qilishadi. Shuning uchun qo‘yning pulini podshoh o‘lgan kuni berasizlar deb aytdim. Endi qo‘ylarni olib ketgan odamlar “Ishqilib podshohimiz o‘lmasin, podshoh o‘lsa Navoiy pulini qistaydi” - deb sizni duo qilibyurishadi –debdi.

Navoiyning bu donoligiga podshohning zavqi kelib, uni o‘ziga vazir etib tayinlabdi.

O‘zbek xalq ertaklaridagi Navoiy timsoliga razm solsak, barcha ertaklarda Navoiy oqil, dono, oliyhimmat, tadbirkor, mehnatsevar, xalqparvarligi ko‘rinib turibdi. Bu holat shoirning ham jamiyat, ham barcha tabaqa vakillari butun bir xalq orasida katta obro‘ga egaligidan darak beradi. Yuqorida keltirilgan ertakda Navoiyning donoligi, tadbirkorligi bilan podshoh do‘stining hamisha el duosida bo‘lishini ta’minlaydi. Uning bunday yo‘l tutishi podshohga ma’qul tushib, uni vazir darajasiga ko‘tarilishiga olib keladi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.**

Xalq og‘zaki ijodida Navoiy tasviri qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bolalar adabiyotining qisman debochasi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodida Navoiy siymosining keltirilishi, bolalarning yuksaklikka erishishida katta yordam beradi. Xalq og‘zaki ijodidagi Navoiy tasviri ularni donolikka, vatanparvarlikka, tadbirkorlikka, mehnatsevarlikka undaydi.

Ajdodlarimiz to‘g‘risidagi ertaklar, qissalar ko‘proq yaratilishi kerak;

Tarixiy shaxslar yaratgan asarlardagi hikmatli so‘zlarni maqollar shaklida bolalarga ko‘proq yetkazish kerak;

Bolalarga ezgulik tushunchalarini mukammal singdirish kerak. Ezgulik tushunchalari ruhida tarbiyalash lozim.

Ular bu orqali bizning ajdodlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘llarini va hozirgi yorug‘ kunlarga erishishimizda ularning qay tarzda qo‘shgan hissalarini bilib oladilar. Zero, yosh avlodga e’tibor kelajakka e’tibordir.

**FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. Sh.M.Mirziyoyev nutqi. Internet ma’lumoti
2. O‘zbek xalq ertaklari (Navoiy)
3. Y.Rahmatov “O‘zbek xalq maqollari va A.Navoiy tanbehlari”.O‘zbek tili va adabiyoti. 2019.1-son.
4. E.Nasrullayev “O‘zbek xalq ertaklarida Navoiy timsoli”. O‘zbek tili va adabiyoti. 2018. 3-son.
5. B.Rajabova “Navoiy karam fazilati haqida”. O‘zbek tili va adabiyoti. 2021. 1-son